



THE NEED FOR SPIRITUAL–MORAL EDUCATION IN A GLOBALIZED WORLD

Avazova Xushro‘Ybibi Kamoltdin qizi

Nizomiy nomidagi O‘zMPU Tarix fakulteti

“Milliy g‘oya, ma‘naviyat asoslari va huquq ta‘limi” yo‘nalishi

3-bosqich talabasi

Abstract

Spiritual–moral education is a continuous process aimed at gradually forming in a person high moral convictions, patriotism, humanity and a sense of beauty, as well as loyalty to national and universal values, with the goal of raising a spiritually mature, harmoniously developed individual. This article discusses the reasons for the growing need for spiritual–moral education in a globalized world, the impact of globalization on the spirituality of youth, the threats of “mass culture” and the digital environment, and the ways of forming spiritual immunity.

Keywords: Globalization, spirituality, spiritual–moral education, youth, spiritual immunity, national values, universal values, “mass culture”, digital environment, worldview.

Introduction

GLOBALLASHGAN DUNYODA MA‘NAVIY TARBIYAGA EHTIYOJ

Avazova Xushro‘Ybibi Kamoltdin qizi

Nizomiy nomidagi O‘zMPU Tarix fakulteti

“Milliy g‘oya, ma‘naviyat asoslari va huquq ta‘limi” yo‘nalishi

3-bosqich talabasi

Annotatsiya:

Ma‘naviy tarbiya – bu shaxsda yuksak axloqiy e‘tiqod, vatanparvarlik, insonparvarlik va go‘zallik tuyg‘ularini, milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarga sadoqatni bosqichma-bosqich shakllantirishga qaratilgan uzluksiz jarayon bo‘lib, uning negizida insonni ma‘nan yetuk, barkamol shaxs etib tarbiyalash maqsadi yotadi. Ushbu maqolada globallashgan dunyoda ma‘naviy tarbiyaga bo‘lgan ehtiyojning



kuchayish sabablari, globallashuvning yoshlar ma'naviyatiga ko'rsatayotgan ta'siri, «ommaviy madaniyat» va raqamli muhitning tahdidlari hamda ma'naviy immunitetni shakllantirish yo'llari haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: globallashuv, ma'naviyat, ma'naviy tarbiya, yoshlar, ma'naviy immunitet, milliy qadriyatlar, umuminsoniy qadriyatlar, «ommaviy madaniyat», raqamli muhit, dunyoqarash.

ПОТРЕБНОСТЬ В ДУХОВНО-ПРАВСТВЕННОМ ВОСПИТАНИИ В ГЛОБАЛИЗИРОВАННОМ МИРЕ

Аннотация:

Духовно-нравственное воспитание – это непрерывный процесс, направленный на поэтапное формирование у человека высоких нравственных убеждений, патриотизма, человечности и чувства прекрасного, а также преданности национальным и общечеловеческим ценностям, целью которого является воспитание духовно зрелой, гармонично развитой личности. В данной статье рассматриваются причины возрастающей потребности в духовно-нравственном воспитании в глобализированном мире, влияние глобализации на духовность молодёжи, угрозы «массовой культуры» и цифровой среды, а также пути формирования духовного иммунитета.

Ключевые слова: глобализация, духовность, духовно-нравственное воспитание, молодёжь, духовный иммунитет, национальные ценности, общечеловеческие ценности, «массовая культура», цифровая среда, мировоззрение.

KIRISH

Har bir jamiyatning taraqqiyoti uning moddiy boyligi bilan birga ma'naviy poydevoriga ham bog'liq, shuning uchun ma'naviyat har qanday millatning o'zligi va kelajagini belgilovchi asosiy omillardan biri sifatida namoyon bo'ladi. Rivojlangan jamiyatda ma'naviy hayotning boy va rang-barang bo'lishi tabiiy hol bo'lib, u inson va olam o'rtasidagi murakkab munosabatlar zaminida shakllanadi. Albatta, ma'naviyat o'z-o'zidan rivojlanuvchi tizim bo'lgani uchun u eskirgan, zararli



unsurlarni chetga surib, yangi, ilg'or va bunyodkor qadriyatlarni o'ziga singdiradi. Biroq bu jarayon o'z-o'zidan kechmaydi: u izchil va maqsadli tarbiyani talab qiladi. Ana shu tarbiyaning negizida, tadqiqotchi ta'kidlaganidek, kelajak bunyodkorlari bo'lgan yoshlarning «inson qalbi va ongini egallash» uchun kurash yotadi [1].

Darhaqiqat, bugungi murakkab olamda barcha sohalarning raqamlashayotgani hamda kiber makonga (virtual olamga) ko'proq faoliyatlarning ko'chayotganligi natijasida yoshlar ma'naviyatini shakllantirishning yangi muammolari paydo bo'lmoqda. Axborot oqimining cheksizligi va madaniy chegaralarning shaffoflashuvi tufayli turli-tuman qadriyat tizimlari, turmush tarzi namunalari va g'oyalar bir vaqtning o'zida, tig'iz oqimda yoshlarga yetib bormoqda. Hayotiy tajribasi va tanqidiy tafakkuri hali to'liq shakllanmagan yosh avlod bu oqimda ko'pincha ezgu bilan yovuzni, foydali bilan zararlarni ajratishda qiynaladi. Natijada ma'naviyat odob-axloq bilan, mazmun esa shakl bilan almashtirilish xavfi yuzaga keladi.

Shunday qilib, globallashuv jarayoni va raqamli kommunikatsiya vositalarining jadal rivojlanishi zamonaviy jamiyatda ma'naviy tarbiya va uning ahamiyati masalasini dolzarb mavzulardan biriga aylantirmoqda. Bugungi kunda yoshlar dunyoqarashiga ko'rsatilayotgan turli ta'sirlar ularning qadriyat tizimi, axloqiy mezonlari va jamiyatdagi o'z o'rnini topishiga bevosita ta'sir o'tkazmoqda [3]. O'zbekistonda bu masala davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan bo'lib, «Ta'lim to'g'risida»gi qonunda ta'lim va tarbiyaning uzviyligi, har tomonlama barkamol shaxsni voyaga yetkazish asosiy tamoyil sifatida belgilangan [12].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Ma'naviy-axloqiy tarbiya muammosi jahon ilmida keng o'rganilgan. Ingliz tadqiqotchisi S. Franch global fuqarolik ta'limini (global citizenship education) XXI asrning «new moral pedagogy» – yangi axloqiy pedagogikasi sifatida ta'riflab, uni umuminsoniy axloqiy tuzilmaga sodiqlikni ifodalovchi gumanistik-kosmopolit qadriyatlar tizimi bilan bog'laydi [7, 506]. E. Sant va uning hammualliflari esa global fuqarolik ta'limi yoshlarni inson huquqlari, tinch-totuv yashash, hamjihatlik va barqaror taraqqiyot kabi umuminsoniy qadriyatlarga sodiq etib tarbiyalashga qaratilganini ko'rsatadi [11].

J. Arthur, K. Kristyansson va D. Walker xarakter, ya'ni axloqiy fazilat tarbiyasi bugungi kunda nafaqat maktab, balki butun dunyo universitetlari oldidagi global vazifa ekanini asoslaydilar [6]. O.A. Kvamme ma'naviy-axloqiy tarbiyani aynan



globallashuv konteksti, xususan ekologik-axloqiy qadriyatlar orqali o'rganish zarurligini ta'kidlaydi [9]. M.R. Islam va uning hammualliflari madaniy globallashuv rivojlanayotgan mamlakatlarda mahalliy o'zlik (identity) uchun jiddiy tahdidga aylanib, madaniy bir xillashuvga olib kelayotganini empirik dalillar bilan asoslaydilar [8]. E. Purwaningsih va R. Ridha esa an'anaviy madaniy qadriyatlarni xarakter tarbiyasiga singdirish yoshlarda yuksak axloqni shakllantirish bilan birga madaniy merosni asrashga ham xizmat qilishini isbotlaydilar [10].

Rus tadqiqotchisi G. Buyantueva talabalar ma'naviy madaniyatini shakllantirish jarayonini tahlil qilib, zamonaviy jamiyat ma'naviy-axloqiy inqiroz holatiga duch kelayotganini va bu jarayon alohida ilmiy-psixologik e'tiborni talab qilishini ko'rsatadi [4]. L. Kasim esa zamonaviy yoshlarning qadriyat yo'nalishlari shaxsning hayotiy istiqbolini va rivojlanish «vektorini» belgilovchi dinamik tizim ekanini ta'kidlaydi [5].

Mahalliy tadqiqotchilardan O.M. G'aybullayev oliy ta'lim muassasalarida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish masalalarini yoritib, globallashuv sharoitida yoshlar tarbiyasini davlat siyosati darajasida ko'rib chiqish zarurligini asoslaydi [1]. U. Mo'minjonova «Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi»ning yoshlar ma'naviy-axloqiy tarbiyasidagi ahamiyatini ochib beradi [2]. M.M. Nazarova esa globallashuv sharoitida milliy qadriyatlarni ta'lim tizimiga tatbiq etishning psixologik ahamiyatini va milliy tarbiyaning yoshlarni ma'naviy xurujlardan himoya qilishdagi o'rnini tahlil qiladi [3].

Tadqiqotning normativ-huquqiy asosini O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrda 1059-son qarori bilan tasdiqlangan «Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi» tashkil etadi; unda tarbiyalanuvchilarda «mafkuraviy immunitet, ... mas'uliyatlilik, tolerantlik, huquqiy madaniyat» kabi fazilatlarni go'daklikdan boshlab shakllantirish vazifa qilib belgilangan [13].

Umuman olganda, adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, ma'naviy tarbiya muammosi jahon va mahalliy ilmda keng yoritilgan. Biroq aynan globallashuv tahdidlari bilan milliy va umuminsoniy qadriyatlarni uyg'unlashtirish hamda profilaktik choralar masalasi hali yetarlicha o'rganilmagan. Tadqiqotda nazariy tahlil, qiyosiy metod, ilmiy manbalarning mazmuniy tahlili (content analysis) va tizimli yondashuvdan foydalanildi; asosan 2016-yildan keyin chop etilgan o'zbek va xorijiy manbalar hamda amaldagi normativ hujjatlar o'rganildi.



MUHOKAMA VA NATIJALAR

Ma'naviyat – insonning ichki olami, e'tiqodi, idroki, axloqiy qarashlari va qadriyatlar tizimini ifodalovchi keng tushuncha. U arabcha «ma'no» so'zidan olingan bo'lib, so'zma-so'z «mazmun», «ichki ma'no» degan ma'noni anglatadi. Ma'naviy tarbiya esa ana shu ichki olamni – insonning vijdoni, e'tiqodi, axloqi va qadriyatlarini maqsadli, izchil va bosqichma-bosqich shakllantirishga qaratilgan jarayondir. Uning bosh maqsadi – insonni nafaqat bilimli, balki ma'nan yetuk, barkamol shaxs etib voyaga yetkazishdir.

Xush, ma'naviy tarbiya va ta'lim o'rtasidagi farq nima?

Ta'lim insonga bilim, ko'nikma va malaka beradi, ya'ni uning aqlini boyitadi. Tarbiya esa insonning qalbi, e'tiqodi va xulqini shakllantiradi, ya'ni uni inson qiladi. Bilimli, ammo ma'naviyatsiz inson jamiyatga foydadan ko'ra ko'proq zarar keltirishi mumkin. Aynan shuning uchun «Ta'lim to'g'risida»gi qonunda ta'lim bilan tarbiyaning uzviyligi alohida ta'kidlangan [12]. Demak, haqiqiy maqsad – bilimli va ayni paytda ma'nan yetuk avlodni tarbiyalashdir.

Xo'sh, globallashtirish ma'naviyatga qanday ta'sir ko'rsatadi?

Globallashtirishning ta'siri ikki yoqlamadir. Bir tomondan, u madaniyatlararo muloqot, ilg'or g'oyalar va umuminsoniy qadriyatlarning erkin tarqalishiga, bilim va tajriba almashinuviga keng imkon yaratadi. Ikkinchi tomondan esa, u madaniy bir xillashuv (gomogenizatsiya), milliy o'zlikning susayishi va qadriyatlar inqiroziga olib kelishi mumkin. Islam va uning hammualliflari ta'kidlaganidek, madaniy globallashtirish ayniqsa rivojlanayotgan mamlakatlarda mahalliy o'zlik uchun tahdid manbai bo'lib qolmoqda [8]. Demak, gap globallashtirishni butunlay rad etishda emas, balki uning ijobiy imkoniyatlaridan foydalanib, salbiy ta'sirlaridan himoyalashda.

Globallashtirish sharoitida ma'naviy tarbiyaga ehtiyojni kuchaytirayotgan eng katta tahdidlardan biri «ommaviy madaniyat»dir. Bu – iste'molchilik va ko'ngilochar sanoatning mahsuli bo'lib, ko'pincha chuqur ma'naviy mazmundan mahrum. U insonni o'ylashga emas, balki shunchaki iste'mol qilishga, oson va mas'uliyatsiz turmush tarziga undaydi. «Ommaviy madaniyat» yoshlarning didini siyqalashtiradi, ularning go'zallik va ezgulik haqidagi tasavvurlarini buzadi. U go'yo erkinlik va zamonaviylik niqobi ostida kirib keladi, aslida esa milliy o'zlik va axloqiy mezonlarni asta-sekin yemiradi.

Ikkinchi jiddiy tahdid – raqamli muhit va axborot xurujlari. Bugungi yoshlar kunining katta qismini ijtimoiy tarmoqlarda o'tkazadi. Bu makonda foydali bilim bilan birga



milliy va diniy qadriyatlarga zid g‘oyalar, soxta qadriyatlar va zararli oqimlar ham keng tarqaladi. Ongi va dunyoqarashi shakllanib ulgurmagan o‘smir bu g‘oyalarni tanqidiy baholay olmasligi mumkin. Shu bois raqamli savodxonlik va axborotni ongli tanlash ko‘nikmasi bugungi ma‘naviy tarbiyaning ajralmas qismiga aylanmoqda. Uchinchi tahdid esa – ma‘naviy marginallashuv, ya‘ni shaxsning o‘z milliy-madaniy ildizlaridan uzilib, na milliy, na global qadriyatlar tizimida o‘ziga mustahkam o‘rin topa olmasligi. Bunday inson ildizsiz daraxtga o‘xshaydi: u har qanday g‘oyaviy shamolda osongina egiladi.

Xo‘sh, bu tahdidlardan qanday himoyalaniish mumkin? Bunga eng to‘g‘ri javob – ma‘naviy immunitetni shakllantirishdir.

Ma‘naviy immunitet – shaxsning zararli g‘oya va ta‘sirlarga nisbatan ongli, mustaqil va tanqidiy munosabat bildira olish qobiliyati. Xuddi inson tanasi kasalliklarga qarshi immunitetga ega bo‘lganidek, inson ma‘naviyati ham zararli ta‘sirlarga qarshi himoya kuchiga ega bo‘lishi kerak. Muhimi shundaki, ma‘naviy immunitet yoshlarni global makondan ajratib qo‘yishni emas, balki ularni mustahkam axloqiy negiz bilan qurollantirib, jahon madaniyatining ilg‘or yutuqlarini ongli o‘zlashtirishga tayyorlashni anglatadi. «Uzluksiz ma‘naviy tarbiya konsepsiyasi»da ham aynan «mafkuraviy immunitet» kabi fazilatlarni go‘daklikdan shakllantirish vazifa qilib belgilangani bejiz emas [13].

Darhaqiqat, globallashgan dunyoda ma‘naviy tarbiyaning eng barqaror modeli – milliy va umuminsoniy qadriyatlarning uyg‘unligi. Bir tomondan, milliy o‘zlik, ona til, tarix, urf-odatlar va sharqona axloq – ma‘naviy immunitetning poydevori. Ikkinchi tomondan, inson huquqlari, bag‘rikenglik, tinchlik va halollik kabi umuminsoniy qadriyatlar – global dunyoda munosib ishtirok etishning sharti. Franch ko‘rsatgan kosmopolit gumanizm yo‘nalishi ham aynan milliy zaminda turib umuminsoniy axloqiy tuzilmaga sodiq bo‘lish g‘oyasini ilgari suradi [7, 506]. Demak, milliylik va umuminsoniylik bir-biriga zid emas, balki bir-birini to‘ldiruvchi qadriyatlardir.

O‘zbekiston tajribasi shuni ko‘rsatadiki, yoshlarning aksariyati milliy qadriyat va an‘analarni saqlagan holda global madaniyat bilan muloqotga kirishmoqda; xorijiy ta‘sir esa ko‘proq tashqi atributlar – kiyinish, musiqa va bo‘sh vaqtni o‘tkazish usullari bilan cheklanmoqda. Bu – quvonarli holat. Biroq ma‘naviy bo‘shliqning paydo bo‘lishiga yo‘l qo‘ymaslik, ya‘ni yoshlarni ijobiy, ezgu va bunyodkor maqsadlar bilan band qilish hamon ustuvor vazifa bo‘lib qolmoqda. Bu borada oila, maktab, mahalla va davlat institutlarining uyg‘un hamkorligi muhim ahamiyatga ega.



Mazkur tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, globallashtirilgan dunyoda ma'naviy tarbiya shaxsning kamoloti, jamiyatning barqarorligi va millatning o'zligini saqlash uchun hayotiy ahamiyatga ega. Uni samarali tashkil etish uchun tarbiya, birinchidan, uzluksiz – oiladan oliy ta'limgacha izchil bo'lishi; ikkinchidan, qadriyatlarga asoslangan bo'lishi; uchinchidan, kattalarning shaxsiy ibratiga tayanishi; to'rtinchidan, raqamli savodxonlik bilan to'ldirilishi lozim. Mo'minjonova ta'kidlaganidek, uzluksiz ma'naviy tarbiya o'z mohiyatiga ko'ra yoshlarning ma'naviy-axloqiy kamolotida muhim ahamiyat kasb etadi [2].

XULOSA

Yoshlar jamiyatning kelajagi bo'lganligi sababli, ularning ma'naviyati butun millatning kelajagini belgilaydi. Yuqoridagilarni hisobga olgan holda aytish mumkinki, globallashtirilgan dunyoda ma'naviy tarbiya endi ixtiyoriy vazifa emas, balki hayotiy zaruratga aylangan. «Ommaviy madaniyat», axborot xurujlari va qadriyatlar inqirozi sharoitida ma'naviy immunitetga ega bo'lmagan shaxsning barkamol kamol topishi nihoyatda qiyin.

Shu boisdan, ma'naviy tarbiyani milliy o'zlik va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligi asosida, uzluksiz va tizimli ravishda tashkil etish, yoshlarda raqamli savodxonlik va tanqidiy tafakkurni rivojlantirish, ularning ijtimoiy faolligini ezgu maqsadlarga yo'naltirish maqsadida davlat va jamoatchilik institutlari tomonidan tizimli chora-tadbirlar ishlab chiqish zarur. Shuningdek, ma'naviy tarbiya samaradorligini baholovchi ilmiy asoslangan mezonlarni ishlab chiqish hamda bu yo'nalishdagi ilmiy-amaliy izlanishlarni kengaytirish dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. G'aybullayev O.M. Oliy ta'lim muassasalarida ma'naviy va ma'rifiy tarbiya ishlarini tashkil etish masalalari // Yangi O'zbekistonda – ma'rifatli shaxs tarbiyasi. – Toshkent: Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar instituti; «Ganjina» nashriyoti, 2023.
2. Mo'minjonova U. Yoshlar ma'naviy tarbiyasida «uzluksiz tarbiya konsepsiyasi»ning ahamiyati // Tarix va jamiyat jurnali. – Jizzax: JDPU, 2021. – № 1(2).
3. Nazarova M.M. Bugungi globallashtiruv sharoitida milliy qadriyatlarni ta'lim tizimiga tatbiq etishning psixologik ahamiyati // Pedagogika va psixologiya. – 2022.



4. Буянтуева Г.Ц.-Д. Проблема формирования духовной культуры студента // Современные исследования социальных проблем. – 2016. – № 12. – С. 17–23.
5. Касым Л. Отдельные аспекты изучения ценностных ориентаций казахстанской студенческой молодежи // Хабаршы. Психология және социология сериясы. – 2021. – Т. 78, № 3.
6. Arthur J., Kristjansson K., Walker D. Character Education in Universities: A Global Perspective. – London: Routledge, 2020.
7. Franch S. Global citizenship education: A new “moral pedagogy” for the 21st century? // European Educational Research Journal. – 2020. – Vol. 19, № 6. – Pp. 506–524.
8. Islam M.R., Wahab H.A., Burmester C.F., Chowdhury S.R. Cultural Globalization: A Critical Analysis of Identity Crises in the Developing Economies // Globalization and Development. – Cham: Springer, 2019.
9. Kvamme O.A. Situating moral education in a globalized world: Environmental ethical values and student experiences // Rethinking Ethical-Political Education. – Cham: Springer, 2020.
10. Purwaningsih E., Ridha R. The role of traditional cultural values in character education // Pakistan Journal of Life and Social Sciences. – 2024. – Vol. 22, № 2. – Pp. 5305–5314.
11. Sant E., Davies I., Pashby K., Shultz L. Global Citizenship Education: A Critical Introduction to Key Concepts and Debates. – London: Bloomsbury, 2018.
12. O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonuni. 2020-yil 23-sentyabr, O‘RQ-637-son. // <https://lex.uz/docs/5013009>
13. «Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasi»ni tasdiqlash to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrdaqi 1059-son qarori. // <https://lex.uz/docs/4676839>.